



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	



SURXON VOHASIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR (SHEROBOD TUMANI MISOLIDA, 1925–1945- YILLAR)



Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li
 Termiz davlat pedagogika instituti
 Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
 (tarix) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mamlakatimizda Sovet hokimiyati o'rnatilishi bilan butun Ittifoq hududida sog'liqni saqlashga oid turli tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, ushbu tadbirlar Surxon vohasini ham chetlab o'tmadi. Sherobod tumanida sog'liqni saqlash tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, unda bir qator kamchiliklar mavjud bo'lganligi turli manbalar, ilmiy adabiyotlar hamda arxiv ma'lumotlari asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash, ambulatoriya, feldsherlik punktlari, shifoxona, Sherobod tumani, Surxon vohasi.

Abstract: This article examines the formation and development of the healthcare system in the Surkhan Oasis, particularly in Sherabad District, during the period of 1925–1945. Following the establishment of Soviet rule, a number of measures aimed at protecting public health were implemented in the region, as in other parts of the Soviet Union. The study investigates the activities of healthcare institutions, including outpatient clinics, feldsher stations, and hospitals. Furthermore, the challenges and shortcomings encountered in the organization and development of the healthcare system are analyzed on the basis of historical sources, scholarly literature, and archival documents.

Key words: healthcare system, outpatient clinic, feldsher stations, hospital, Sherabad District, Surkhan Oasis, medical services, Soviet period.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы становления и развития системы здравоохранения в Сурханском оазисе, в частности в Шерабадском районе, в 1925–1945 годах. После установления советской власти в регионе, как и на всей территории Союза, был реализован комплекс мероприятий, направленных на охрану здоровья населения. В ходе исследования рассмотрена деятельность учреждений здравоохранения, включая амбулатории, фельдшерские пункты и больницы. Кроме того, на основе исторических источников, научной литературы и архивных документов проанализированы проблемы и недостатки, возникшие в процессе организации и развития системы здравоохранения.

Ключевые слова: система здравоохранения, амбулатория, фельдшерские пункты, больница, Шерабадский район, Сурханский оазис, медицинское обслуживание, советский период.

KIRISH

XX asrning birinchi yarmida Surxon vohasi, xususan Sherobod tumani, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan tubdan o'zgarishlar girdobiga tortilgan o'tish davri mintaqalaridan biri bo'lgan. 1924–1925-yillarda O'zbekiston SSRning tashkil etilishi va Sovet hokimiyatining O'rta Osiyodagi ma'muriy islohot siyosatining boshlang'ich bosqichi mintaqada sog'liqni saqlash tizimini shakllantirish masalasini dolzarb davlat vazifasiga aylantirdi. Surxondaryo viloyatining chekka hududlarida joylashgan tumanlaridan biri sifatida Sherobod o'zining tarixiy-geografik xususiyatlari bilan sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar jarayonining murakkabligini yaqqol ko'rsatuvchi misolga aylanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sovet hukumatining sog'liqni saqlash sohasidagi ilk qadamlari N.A. Semashko tomonidan ishlab chiqilgan "proletariat tibbiyoti" konsepsiyasiga asoslanib, tibbiy yordamni markazlashtirilgan davlat tizimi orqali bepul va ommaviy tarzda taqdim etishni ko'zda tutgan edi ^[1]. Biroq O'rta Osiyo mintaqasida, jumladan, Surxon vohasida

bu g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish bir qator obyektiv va subyektiv to'siqlar tufayli sezilarli qiyinchiliklar bilan kechdi. Aholi orasida an'anaviy tabobat (yunon-arab tibbiyoti, tabiblik) va diniy e'tiqodlarga asoslangan tibbiy qarashlarga ishonch mustahkam bo'lib, mahalliy aholi ko'p hollarda Sovet tibbiyotiga shubha bilan yondashdi ^[2].

Sherobod tumani misolida tadqiq etilayotgan 1925–1945-yillar davri uch muhim bosqichni qamrab oladi:

- *birinchi bosqich* (1925–1932) – sovet tibbiyotini tashkil etishning dastlabki urinishlari va tibbiy muassasalarning shakllanishi;
- *ikkinchi bosqich* (1932–1941) – industrializatsiya va kollektivlashtirishning ijtimoiy sog'liqqa ta'siri, epidemik kasalliklarning avj olishi;
- *uchinchi bosqich* (1941–1945) – Ikkinchi jahon urushi yillarida sog'liqni saqlash tizimiga qo'yilgan talablarning keskin ortishi va mintaqaga ko'chirilgan tibbiy muassasalarning faoliyati ^[3].

Mazkur mavzu tarixshunosligida O'zbekistonda sog'liqni saqlash tarixi masalalariga D.Yu. Aripov, M.M. Hamidova, shuningdek, Rossiya va G'arb tadqiqotchilari S.G. Solomon, J.F. Hutchinson kabi olimlar murojaat qilgan bo'lsa-da ^[4], Surxon vohasining alohida tumanlari, xususan Sherobod tumanining mikrodarajasida ushbu muammo yetarlicha o'rganilmagan. Shu bois maqolada O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'ZRMDA), Surxondaryo viloyati davlat arxivi (SVDA) materiallaridan, shuningdek, davr matbuoti va statistik hisob-kitob hujjatlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar – xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil va xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Sherobod tumanida sog'liqni saqlash xizmati tarixi ilmiy manbalar asosida yoritib berildi.

O'zbek tarixnavisligida M.M. Hamidovning "O'zbekistonda sovet sog'liqni saqlash tizimining shakllanishi (1920–1941)" (2003) monografiyasi respublika miqyosida tibbiy muassasalar rivojlanishini jamlagan asosiy akademik manba hisoblanadi ^[5].

Biroq ushbu asar viloyat va tuman darajasidagi jarayonlarga nisbatan mavhumroq bo'lib, mikrodarajadagi tadqiqotlar uchun zamin sifatida xizmat qilishi bilan qimmatlidir. D.Yu. Aripovning maqolalari esa Surxondaryo viloyatining ijtimoiy tarixini umumiy tarzda yoritgan bo'lsa-da, sog'liqni saqlash masalasi ularda ikkinchi darajali mavzu sifatida ko'rib chiqilgan ^[6].

1925–1945-yillarda Surxon vohasida bezgak, ich terlama va traxoma kabi kasalliklarning keng tarqalganligi arxiv hujjatlarida qayd etilgan. Bu masala bo'yicha Sovet Ittifoqi miqyosida jamoat salomatligi muammolarini o'rganuvchi John T. Alexandarning "Bubonic Plague in Early Modern Russia" (1980) asari va zamonaviy tadqiqotchi Judy Pallotning mintaqaviy demografik o'zgarishlar bo'yicha ishlari muqoyasali asos beradi ^[7]. O'rta Osiyoda bezgakka qarshi kurash tarixini maxsus o'rgangan tadqiqot deyarli yo'qligi ushbu maqolaning yangilik darajasini yanada oshiradi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi sovet sog'liqni saqlash tarixi ko'proq umumviloyat yoki respublika darajasida o'rganilgan bo'lib, tuman miqyosidagi mikroistorik tadqiqotlar, xususan Sherobod tumani misolida 1925–1945-yillarni qamrab oluvchi maxsus ilmiy ishlar ilmiy muomalaga kiritilmagan. Shuningdek, mavjud o'zbek tilidagi tadqiqotlar sovet sog'liqni saqlash siyosatini ko'pincha uning mafkuraviy muvaffaqiyatlari nuqtayi nazaridan baholagan bo'lsa, mazkur maqolada tizimning cheklovlari, mahalliy qarshiliklar va improvizatsion yechimlar ham tahlil qilinadi. Aynan shu jihatlar ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tarix fanida qo'llaniladigan xolislik, tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida muammoga kompleks yondashish maqsadida tarixiy-qiyosiy, tarixiy-xronologik, statistik tahlil hamda manbashunoslik usullaridan foydalanildi.

Maqolaning asosiy manbaviy bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, Surxondaryo viloyati davlat arxivi hujjatlari, davriy matbuot materiallari, sog'liqni saqlash muassasalarining hisobotlari va statistik ma'lumotlar tashkil etdi. Arxiv hujjatlari yordamida Sherobod tumanida 1925–1945-yillarda sog'liqni saqlash tizimining shakllanishi, tibbiy muassasalar faoliyati, kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda aholining sanitariya holati o'rganildi.

Tadqiqot davomida tarixiy voqealar va jarayonlar xronologik ketma-ketlikda tahlil qilinib, sog'liqni saqlash tizimida yuz bergan o'zgarishlarning sabablari va oqibatlari aniqlandi. Shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik ko'rsatkichlar hamda arxiv materiallari o'zaro qiyoslanib, ularning ishonchlilik darajasi baholandi. Ushbu metodologik yondashuv Surxon vohasi, xususan Sherobod tumanida sog'liqni saqlash tizimining rivojlanish xususiyatlari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish yo'llarini ilmiy asosda yoritishga xizmat qildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Sherobod tumanida sovet sog'liqni saqlash tizimining institutsional asosi 1925–1929-yillarda qo'yilgan. Shu davr ichida tumanda birinchi davlat ambulatoriyasi (1926), tug'ruqxona (1927) va traxoma kabineti (1928) ochildi [8]. Biroq ushbu muassasalar birinchi bosqichda son jihatidan cheklangan bo'lib, 1927-yil hisobotiga ko'ra, butun tuman bo'yicha jami 2 nafar malakali vrach va 4 nafar feldsher faoliyat yuritgan [9]. Bu ko'rsatkich aholining umumiy soni (taxminan 18 000–20 000 kishi) [10] bilan qiyoslanganda keskin nomuvofiqlikni namoyon etadi va tibbiy xizmatning qamrov darajasi juda past bo'lganidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval: **Sherobod tumanida tibbiy muassasalar soni dinamikasi (1925–1945-yillar)**

Yil	Ambulatoriya	Shifoxona o'rinlari	Tug'ruqxona	Tibbiyot xodimlari (jami)
1925	-	-	-	1
1928	1	10	1	7
1932	2	18	1	12
1937	3	32	2	21
1941	4	45	3	28
1945	5	61	3	34

Manba: SVDA. F. 1, op. 1, d. 48, 112, 189; O'zRMDA. F. R-94, op. 5, d. 312.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'rganilgan yigirma yillik davrda shifoxona o'rinlari soni olti barobar, tibbiyot xodimlari soni esa o'ttiz to'rt barobar o'sgan. Ayni paytda ushbu mutlaq o'sish ko'rsatkichlari aholining tibbiy xizmatga bo'lgan haqiqiy ehtiyojini qondirishga yetarli bo'lmagan – bitta vrach hissasiga 1932-yilda o'rtacha 2 100 nafar aholi to'g'ri kelganligi bu xulosani tasdiqlaydi [11].

Tadqiqot ko'rsatadiki, o'rganilayotgan davrda Sherobod tumanida bezgak (malyariya), traxoma, ich terlama (tif) va sil kasalliklari eng keng tarqalgan nosologik guruhlarini tashkil etgan. 1930-yilda tuman ijroiya qo'mitasiga taqdim etilgan sanitariya inspeksiyasi hisobotida tumanda aholining 34–38 foizi bezgak bilan kasallangan deb baholangan [12]. Bu ko'rsatkich Amudaryo havzasining iqlim va gidrologik xususiyatlari – Sherobod daryosi, sug'orish ariqlari va botqoq hududlarning mavjudligi – bilan bevosita bog'liq bo'lib, chivinlarning ko'payishi uchun qulay muhitni shakllantirib bergan [13].

Traxoma epidemiologiyasi alohida tadqiqot obyektiga aylandi. Mavjud arxiv ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 1928–1934-yillar orasida tumanda traxoma bilan kasallanish darajasi asta-sekin kamayib borgan, lekin to'liq tugatilgan: 1934-yil hisobotiga ko'ra, maktab yoshidagi bolalar orasida kasallik darajasi 22 foizni tashkil etgan [14]. Bunday nisbatan sekin pasayishning sababi faqat davolash choralarining yetarli emasligi bilan emas, balki aholi orasida gigiyenik savodxonlikning pastligi va an'anaviy yuz yuvish tartiblarining saqlanganligi bilan ham izohlanadi [15].

Tadqiqot jarayonida aniqlangan muhim natijalardan biri – markaziy siyosatning mahalliy sharoitda amalga oshirilishida tizimli og'ishlarning mavjudligidir. Birinchidan, 1927–1929-yillarda tuman ambulatoriyasiga murojaat qiluvchi mahalliy ayollarning soni erkaklar soniga nisbatan 6–8 barobar kam bo'lgan [16]. Bu holat an'anaviy parda madaniyati va ayollarning begona erkak shifokorga ko'rinishiga bo'lgan diniy-ijtimoiy munosabat bilan bog'liq bo'lib, Sovet hukumatini tez orada ayol akusherlarni (akusherlar va doktor-akusherlar) jalb qilish hamda mahalliy ayollar orasidan tibbiy kadrlar tayyorlash dasturini tezlashtirish zaruriyatini keltirib chiqargan [17].

Ikkinchidan, 1929–1932-yillar kollektivlashtirish davrida tibbiy kadrlarning bir qismi kolxoz tashkilotchiligiga jalb etilishi tibbiy muassasalar faoliyatining vaqtincha susayishiga sabab bo'ldi. 1931-yil tuman ijroiya qo'mitasi bayonnomasida feldsherlardan kolxoz ro'yxatga olish ishlarida yordamchi sifatida foydalanilganligi qayd etilgan [18].

1941–1945-yillar davri tumanning sog'liqni saqlash tizimiga ikki tomonlama bosim o'tkazdi. Bir tomondan, harbiy xarajatlar uchun davlat byudjetining qayta taqsimlanishi tufayli tibbiy jihozlar yetkazib berilishi keskin kamaydi. Ikkinchi tomondan, Ukraina, Rossiya va Belorussiyadan ko'chirilgan tibbiyot muassasalari xodimlarining mintaqaga kelishi malakali kadrlar sonini vaqtincha oshirdi [19].

1943-yilda Sherobod tumaniga Xarkov tibbiyot institutining o'quv laboratoriyasi evakuatsiya qilindi, bu esa mahalliy tibbiy xizmat uchun qo'shimcha moddiy-texnik imkoniyat yaratdi [20].

Urush yillarida tug'ilish ko'rsatkichlarining pasayishi va o'lim darajasining nisbiy ortishi qayd etilgan. SVDA'dagi 1943 va 1944-yillar aholi statistikasi hisobotlari bolalar o'limi ko'rsatkichlarining o'sishini – birinchi navbatda 0–5 yosh guruhida – aks ettiradi. Bu holat asosan oziq-ovqat tanqisligi va tibbiy dori-darmonlar yetishmasligi bilan bog'langan [21].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda 1925–1945-yillarda Sherobod tumanida sog'liqni saqlash tizimining shakllanishi, uning asosiy muammolari va qo'llanilgan yechimlar arxiv manbalari, statistik ma'lumotlar hamda mavjud adabiyotlar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar quyidagi ilmiy xulosalarni asoslashga imkon beradi.

Birinchidan, Sherobod tumanida sovet tibbiyot tizimining institutsional infratuzilmasi o'rganilgan yigirma yillik davr mobaynida sezilarli miqdoriy o'sishni boshdan kechirdi: shifoxona o'rinlari 6 barobar, tibbiy xodimlar soni esa 34 barobar ko'paydi. Biroq bu mutlaq o'sish aholi soniga nisbatan hisoblanganda, tibbiy xizmatning qamrov darajasi butun davr mobaynida past bo'lib qolaverdi va ko'rsatkichlar Sovet hukumatining rasmiy prognozlaridan katta farq qildi.

Ikkinchidan, epidemiologik tahlil shuni ko'rsatadiki, bezgak va traxoma Sherobod aholisi salomatligi uchun eng jiddiy tahdid bo'lib qolgan. Kasalliklarni yuqtirish omillari – iqlim, sug'orish tizimi va sanitariya saviyasining pastligi – tub demografik o'zgarishsiz faqat tibbiy choralar orqali hal etib bo'lmashligi amaliyotda tasdiqlangan.

Uchinchidan, markaziy siyosatning mahalliy kontekstda amalga oshirilishi sezilarli o'ziga xosliklar kasb etdi. Ayollarning tibbiy muassasalarga murojaat qilishdagi sustlik, an'anaviy tabobat bilan davlat tibbiyotining parallel mavjudligi, kadrlarning nomutaxassis vazifalarga jalb etilishi – bularning barchasi Sovet modernizatsiyasining Surxon vohasidagi o'ziga xos ko'rinishini belgilagan.

To'rtinchidan, 1941–1945-yillar urush davri tuman sog'liqni saqlash tizimiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatdi: byudjet qisqarishi va ta'minotning zaiflashishi tizimni ichkaridan bo'shatdi, biroq evakuatsiya qilingan tibbiy muassasalar hamda mutaxassislar vaqtinchalik kadrlar salohiyatini oshirib, urushdan keyingi rivojlanish uchun ma'lum zamin tayyorladi.

Yuqoridagi xulosalar, umuman olganda, Sherobod tumanini – va kengaytirilgan ma'noda Surxon vohasini – sovet sog'liqni saqlash tarixini o'rganishda mintaqaviy xilma-xillikni ko'rsatuvchi muhim holat sifatida taqdim etadi. Tadqiqot shuni ham ko'rsatadiki, faqat markaziy direktivalar va umumiy statistika asosida o'rganilganda sovet tibbiyoti tarixining haqiqiy manzarasi to'liq bo'lmaydi – mikroistorik yondashuv bu sohadagi tadqiqotlar uchun zarur metodologik muqobil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Семашко Н.А. Основы советского здравоохранения. – М.: Государственное издательство медицинской литературы, 1926. – С. 12–18.
2. Абашин С.Н. Советский кишлак: между колониализмом и модернизацией. – М.: НЛО, 2015. – С. 203–211.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'zRMDA). F. R-837, op. 32, d. 145, l. 12–17; Surxondaryo viloyati davlat arxivi (SVDA). F. 1, op. 1, d. 48, l. 3.
4. Solomon S.G. & Hutchinson J.F. (eds.) Health and Society in Revolutionary Russia. – Bloomington: Indiana University Press, 1990. – P. 47–69; Хамидова М.М. Ўзбекистонда совет соғлиқни сақлаш тизимининг шаклланиши (1920–1941). – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 88–97.
5. Хамидова М.М. Ўзбекистонда совет соғлиқни сақлаш тизимининг шаклланиши (1920–1941). – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 112–128.
6. Арипов Д.Ю. Сурхандарья в годы советских преобразований // Ўзбекистон тарихи. – 2011. – № 3. – Б. 55–63.
7. Alexander J.T. Bubonic Plague in Early Modern Russia. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1980. – P. 201–209; Pallot J. & Shaw D.J.B. Landscape and Settlement in Romanov Russia. – Oxford: Clarendon Press, 1990. – P. 88.
8. Surxondaryo viloyati davlat arxivi (SVDA). F. 1, op. 1, d. 48, l. 6–8.
9. SVDA. F. 1, op. 1, d. 48, l. 11.
10. O'zRMDA. F. R-837, op. 32, d. 145, l. 3 (1926-yil aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari, Sherobod tumani).
11. SVDA. F. 2, op. 1, d. 72, l. 19 (1932-yil Sherobod tuman sog'liqni saqlash bo'limining yillik hisoboti).
12. SVDA. F. 1, op. 1, d. 91, l. 33 (1930-yil sanitariya inspeksiyasi dalolatnomasi).
13. Мошковский Ш.Д. Маляриология. – М.: Медгиз, 1950. – С. 411–418 (O'rta Osiyo iqlimi va malyariya tarqalishi haqida).
14. SVDA. F. 2, op. 1, d. 103, l. 27 (1934-yil traxoma bo'yicha tuman hisoboti).
15. Давидович В.Е. Борьба с трахомой в Средней Азии. – Ташкент: Узмедгиз, 1938. – С. 54–61.
16. SVDA. F. 2, op. 1, d. 58, l. 14 (1927–1929-yillar ambulatoriya tashrif daftarlari).
17. Northrop D. Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. – Ithaca: Cornell University Press, 2004. – P. 112–119.
18. SVDA. F. 1, op. 1, d. 118, l. 44 (1931-yil tuman ijroiya qo'mitasi bayonnomasi, 7-sonli majlis).
19. O'zRMDA. F. R-94, op. 7, d. 441, l. 2–5 (1941–1943-yillarda evakuatsiya qilingan tibbiy muassasalar ro'yxati).
20. SVDA. F. 3, op. 1, d. 201, l. 8 (Xarkov tibbiyot instituti laboratoriyasining Sherobodga joylashtirilishi to'g'risidagi buyruq, 1943-yil).
21. SVDA. F. 1, op. 2, d. 17, l. 31–34 (1943–1944-yillar aholi statistikasi va o'lim sabablari jadvali).
22. Allamurotov Asadbek. Elektron pochta: allamurotovasadbek74@gmail.com

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.